Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 372.881.111'243
ORCID: 000-0002-6524-3770

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ORQALI O'QUVCHILARNI HAYOTIY VAZIYATLARDA MULOQOTGA TAYYORLASH

Xoliqova Matluba Mardon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti
E-mail: *xoliqovamatluba5@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarda muloqotga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda muloqot jarayonida til birliklaridan to'g'ri foydalanish, turli ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda fikr bildirish va o'zaro suhbatdosh bilan samarali o'zaro aloqa o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Maktab o'quvchilarining kundalik hayotda uchraydigan muloqot holatlarida erkin va aniq fikr bildirish, savol-javob qilish, suhbatdoshni tinglash va tushunish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, dars jarayonida o'yin, rolga kirish, dialogik mashqlar va guruhli ishlardan foydalanish orqali o'quvchilarning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kommunikativ yondashuv, muloqot kompetensiyasi, hayotiy vaziyat, nutqiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikma.

ПОДГОТОВКА УЧАЩИХСЯ К ОБЩЕНИЮ В ЖИЗНЕННЫХ СИТУАЦИЯХ ЧЕРЕЗ КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты подготовки учащихся к общению в реальных жизненных ситуациях на основе коммуникативного подхода в процессе начального образования. Анализируются методы формирования навыков грамотного использования языковых единиц в процессе общения, выражения мнения в соответствии с различными социальными ситуациями и установления эффективного взаимодействия с собеседником. Даны методические рекомендации по формированию у школьников умений свободно и ясно выражать свое мнение, задавать вопросы, слушать и понимать собеседника в ситуациях общения, встречающихся в повседневной жизни. Также рассматриваются способы развития речевых и социальных компетенций учащихся посредством использования игр, ролевых игр, диалогических упражнений и групповой работы на уроке.

Ключевые слова: начальное образование, коммуникативный подход, коммуникативная компетентность, жизненная ситуация, развитие речи, социальные навыки.

PREPARING STUDENTS FOR COMMUNICATION IN LIFE SITUATIONS THROUGH A COMMUNICATIVE APPROACH IN PRIMARY EDUCATION

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Annotation. This article covers the theoretical and practical aspects of preparing students for communication in real-life situations based on a communicative approach in the process of primary education. It analyzes the methods of forming the skills of using language units correctly in the process of communication, expressing opinions in accordance with various social situations, and establishing effective interaction with the interlocutor. Methodological recommendations are given on the formation of the skills of schoolchildren to freely and clearly express their opinions, ask questions, listen to and understand the interlocutor in communication situations encountered in everyday life. Also, ways of developing students' speech and social competencies through the use of games, role-playing, dialogic exercises, and group work in the lesson are considered.

Key words: primary education, communicative approach, communication competence, life situation, speech development, social skills.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim tizimida o‘quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olishga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida shaxsning kommunikativ kompetensiyasi uning muvaffaqiyatli integratsiyasi va faol ijtimoiy hayotga moslashuvi uchun zarur asosdir. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta'lim bosqichida kommunikativ yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarda nutqiy, ijtimoiy va madaniy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchining til vositalaridan real muloqot jarayonida samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat darslikdagi bilimlarni o‘zlashtiradi, balki kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarda erkin fikr bildirishi, savollarga javob berishi, hamkorlikda muammolarni hal qilishi va suhbatdoshini tushunish malakasini hosil qiladi.

Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham yangi O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Boshlang‘ich ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvni qo‘llash masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olishga tayyorlash, tilni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o‘rgatishdan iborat.

Kommunikativ yondashuv bu muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni shakllantirishga, u bilan material va harakat usullarini ongli ravishda tushunishga, shuningdek bayonot samaradorligi talablarini tushunishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiya [2].

Mahalliy tadqiqotlarda A.Jo‘rayev., M.Xolmatov., N.To‘xtayevalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda dars jarayonida faol muloqot metodlarini qo‘llash samaradorligini ta'kidlagan. Xususan, ona tili darslarida savol-javob, suhbat, rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikr bildirish va

dialogik nutq malakalari kuchayishi aniqlangan.

Tilshunos olim Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasida til bilimini amaliy muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyati asosiy maqsad sifatida belgilangan. Keyinchalik Canale va Swain bu tushunchani rivojlantirib, grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni o‘z ichiga olgan modelni ishlab chiqdilar. Bu model o‘quvchining nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishini, balki vaziyatga mos, tushunarli va ta’sirchan muloqot qila olishni ta’minlashga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim muhitida aloqa jarayoni, ayniqsa uning kommunikativ tomoni bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammolar alohida ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda kommunikativlikning asosiy tamoyillari ko‘plab mamlakatlarning ta’lim tizimiga qat’iy kiritilgan [3].

YUNESKOning 2030-yilgacha mo‘ljallangan ta’lim strategiyasida ham kommunikativ kompetensiya “XXI asr ko‘nikmalari” tarkibidagi muhim malaka sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, o‘quvchilarni real hayotda hamkorlikda ishlash, ijtimoiy faollik va madaniyatlararo muloqotga tayyorlash zarurligi urg‘ulanadi.

METODLAR. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlarning kombinatsiyasidan foydalanildi.

1. Nazariy-tahliliy metodlar

- Mavzuga oid ilmiy manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish.
- Mahalliy va xorijiy tajribalarni solishtirish.
- Kommunikativ yondashuvning psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilish.

2. Kuzatuv metodi

- Boshlang‘ich sinflarda ona tili va boshqa fanlardan olib borilgan dars jarayonlarini kuzatish.
- O‘quvchilarning darsdagi faollik darajasi, muloqotga kirishish tezligi, nutqiy xatolarini qayd etish.

3. So‘rovnoma va intervyu

- O‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlar tashkil etish.
- Ota-onalardan bolalarning uy sharoitida muloqot qilish odatlari haqida ma’lumot olish.

Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish muhimdir. Interfaol metodlar, AKT, rolli o‘yinlar va bahs-munozaralar orqali o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shu bilan birga, pedagoglar har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishlari lozim [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqotga tayyorlashda ham muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari, faol tinglovchi bo‘lishi, ijtimoiy va madaniy muloqot qoidalarini tushunib, ularga rioya qila olishi ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Kommunikativ metodlar yordamida dars jarayonlari jonli, mazmunli va bolalarning kundalik hayotiy ehtiyojlariga yaqinlashtirilgan holatda o‘tishi, ularning shaxsiy faolligi va ishtirokchanligini kuchaytiradi.

Kommunikativ yondashuv o‘quvchilarni erkin muloqot qilishga tayyorlaydi. U o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, tilni real hayotda ishlatish qobiliyatini mustahkamlaydi. Kommunikativ yondashuv zamonaviy til o‘qitish metodikasining muhim qismi hisoblanadi. Uni O‘zbekiston ta’lim tizimiga to‘g‘ri joriy etish orqali o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini

sezilarli darajada oshirish va ularni global muloqotga tayyorlash mumkin [5].

MUHOKAMA. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi — bilim berish bilan bir qatorda, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda muloqot madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Kommunikativ yondashuv aynan shu maqsadga xizmat qiladigan eng samarali metodlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv o'quvchining markazda bo'lishini ta'minlab, uning faol ishtiroki va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rag'batlantiradi. Ayniqsa, hayotiy mavzular asosida olib borilgan muloqotlar bolalarda amaliy nutq ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni real vaziyatlarga moslashishga o'rgatadi. Shuningdek, bu yondashuv orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida iliq va ochiq muloqot muhiti yaratiladi, bu esa o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, boshlang'ich ta'limda kommunikativ yondashuvni tizimli va izchil qo'llash, pedagoglar malakasini oshirish orqali bu jarayonni yanada samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ yondashuv asosida o'qitish usullarini takomillashtirish o'quvchilarning amaliy bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil qilishi lozim. Shu bilan birga, didaktik materiallardan ijodiy foydalanish va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ yondashuvning ahamiyati va afzalliklari juda muhim hisoblanadi, chunki bu yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi [6].

XULOSA. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kommunikativ yondashuvni qo'llash — o'quvchilarda amaliy nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni real hayotiy vaziyatlarda erkin va samarali muloqotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat til vositalarini o'zlashtiradilar, balki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish, o'z fikrini aniq, ravon va tushunarli bayon qilish, hamkorlikda ishlash, tinglash madaniyatiga rioya qilish kabi ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar. Kommunikativ yondashuv orqali darslar tashkil etilganda, o'quv markaziga o'quvchi shaxsiy tajribasi, ehtiyoji va qiziqishlari chiqadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va ularning tilga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Shuningdek, turli hayotiy vaziyatlarga moslab ishlab chiqilgan muloqotli topshiriqlar, rolli o'yinlar, muhokamalar va guruhiy ishlar o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ salohiyatini rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash — o'quvchilarni zamonaviy jamiyatga mos, fikrlay oladigan, erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagoglar o'z amaliyotida ushbu yondashuvning metodik imkoniyatlaridan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nomozova R.O., Rizaqulova S.I "Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetetentligini shakllantirishning psixologik jihatlari". Uslubiy qo'llanma, Samarqand 2025. B. 3. (Nomozova R.O., Rizakulova S.I. "Psychological aspects of the formation of professional competence in future teachers". Methodological manual, Samarkand 2025. P. 3.)

2. "Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish tamoyillari". Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari o'quv uslubiy majmua. Toshkent 2022. B. 50. (Principles of the formation of

communicative competence. Communicative linguistics and language competencies educational methodological complex. Tashkent 2022. P. 50.)

3. Axmedov A.Y "Kommunikativ kompetensiya-pedagogikaning asosiy tamoyili sifatida" Qo'qon DPI. Ilmiy-xabarlar 2025-yil 2-son. B. 16-19. (Akhmedov A.Y. "Communicative competence as a basic principle of pedagogy" Kokand DPI. Scientific News, No. 2, 2025. P. 16-19.)

4. Xujamkulova N.R., Fayzullayeva L.S "Zamonaviy yondashuvlar asosida kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi". Ilm-fan taraqqiyotida ilmiy izlanishlar va muhim omillar. https://global-science-review.com/ 1-to'plam 1-son fevral 2025. B. 136. (Khuzhamkulova N.R., Fayzullayeva L.S. "Methodology of developing communicative skills based on modern approaches". Scientific research and important factors in the development of science. https://global-science-review.com/ Volume 1, Issue 1, February 2025. P. 136.)

5. Xusanova U.A "Kommunikativ yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish" Vol. 53. (2024): Miasto Przysztosci. B. 636-638. (Khusanova U.A. "Development of students' speaking skills through the use of a communicative approach" Vol. 53. (2024): Miasto Przysztosci. P. 636-638.)

6. Xoliqova M.M "Yangi O'zbekiston sharoitida istiqbolli ta'lim asosida kommunikativ yondashuvga asoslangan o'qitish usullarini takomillashtirish metodikasi". "O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion asosda shakllantirish va startap loyihalarning moliyalashtirish mexanizmi" mavzusidagi xorijiy olimlar ishtirokida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2024-yil 25-dekabr. B. 256.